

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO'LIMI
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-6/4
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arebayevich, d.b.n., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*

*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashevna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultanovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/4 (115), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2024 y. – 466 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

"Bahramasuri" pieces, "Munlan", "Zayi", "Lali", "Zafarani", "White", "Khas" types of cotton, etc. it is possible to find such ktematonyms.

"The musical trio began to play "Karabagh shikastesi". When "Karabagh shikastesi" was sung, Ganja Khan's eyes filled with tears." [4, c.5, p.84]. "When the trio played "Jeyrany", the soldiers came out and started playing. "Jeyrany" was replaced by "Tarakame". [80, v.5, p.86]. "After coming to the "Eight Heavens" palace, the artist was busy drawing pictures on ancient books, Nizami khams, and one of such pictures - "Khosrov meets Shirin" was very liked by the shah." [1, c.2, p.147]. "Let that lover see that Mrs. Pari has heard the "Violet" couplet." [1, c.2, p.218]. "They call this air: "Egyptian"...They call this air "Dubeiti", my father and my mother." [76, vol.1, p.119]. "The collection of Mirza Jalil. "Molla Nasreddin di" [2, c.3, p.70]. "At least you should read the great Nizami's "Owls' conversation" [3, c.4, p.145].

The correct and accurate identification of the above-mentioned onomastic units and each proper name similar to them and control over their distortion have special historical and cultural importance. Because these directly affect the history, geography, economy, socio-political, scientific life, culture, language, ethical-aesthetic views of our people which are related to.

The idea of microobjects and micronames is very important when studying toponyms. The idea of microobjects and micronames arose during the study of toponymy, where the term microtoponyms exists, referring to the names of small physical-geographical objects. However, the boundaries and scope of microtoponymy are controversial. First of all quantitative and qualitative criteria are important for identifying microtoponyms.

Ktematonyms: Onomastics is a field of science that includes the names of material and cultural monuments, scientific researches, scientific articles, organizations, institutions, etc. Ktematonyms are widely used in fiction. Ktematonyms are one of the main onomastic units that bear the characteristics of the period in which the works of art were written.

Phytonyms: Special names given to any geographical objects are called phytonyms. These onomastic units are used in fiction for the purpose of conveying the concept of place to the reader.

Conclusion. In general collecting onomastic units that have a special position in the vocabulary of the language involving them in research, compiling dictionaries, working on their orthographic and orthoepic problems creating a system of onomastic units specific to the pure Azerbaijani language should be an important task for Azerbaijani linguists.

REFERENCES:

1. Karabakh documents. Book I: tert.ed. N. Akhundov. Baku: East-West, 2006. 216 p.
2. Garaoglu, F. The history of the Turkish nation, the states it founded and its ancestors. Baku: Nurlar, 2007. 384 p.
3. Gasimli, M. Poetry of Shah Ismayil Khatayi Baku: Elm, 2002. 176 p.
4. Gasimova, S.B. Linguistic analysis of onomastic units used in the works of Shamakhi poets who lived in the 19th century and the beginning of the 20th century: abstract of the doctoral dissertation of philological sciences) Baku, 2005. -6 p.
5. Kitabi-Dada Gorgud: / tert. ed. S. Alizade Baku: Önder, 2004. 376 p.

O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA BADIY XRONOTOP SHAKLLARI VA ULARNING TALQINI

A.S. Baisov, Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek hikoyachiligidagi badiiy xronotop shakllari talqin qilingan. Xronotop olam va odam munosabatlarini tasvirlashda, qahramon qalbidagi kechinma, iztirob, uning o'zigagina tegishli ruhiyat manzaralarining eng chuqur o'zanlarini to'liq his qilishda, yozuvchining badiiy-g'oyaviy maqsadini ifodalashda hamda asarning mazmun va shaklini ochishda xizmat qiladi. U ijodkor uslubining o'ziga xos jihatlarini belgilab, milliy fikrlash tarzini aks ettiradi. Xronotop janr va syujetni tashkil etib, asarning ichki izchilligini mustahkamlaydi. Zamon va makon kategoriyasi umumlashtiruvchi vazifa bajaradi.

Kalit so'zlar. xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, mifologik makon, uy xronotopi.

Abstract. The article interprets artistic chronotope forms in Uzbek storytelling. Chronotope serves to describe the relationship between the universe and man, to fully feel the deepest depths of the hero's heart, suffering, his own mental landscapes, to express the writer's artistic and ideological goal, and to reveal the content and form of the work. It defines the unique aspects of the artist's style and reflects the national way of thinking. Chronotope organizes the genre and plot and strengthens the internal consistency of the work. The category of time and space performs a generalizing function.

Key words: chronotope, artistic time, artistic space, mythological space, domestic chronotope.

Abstract. В статье трактуются художественные формы хронотопа в узбекском повествовании. Хронотоп служит для описания взаимоотношений Вселенной и человека, полного прочувствования глубочайших глубин сердца героя, страданий, его собственных душевных пейзажей, выражения художественно-идеологической цели писателя, раскрытия содержания и формы произведения. Оно определяет своеобразие стиля художника и отражает национальный образ мышления. Хронотоп организует жанр и сюжет, усиливает внутреннюю логичность произведения. Категория времени и пространства выполняет обобщающую функцию.

Key words: хронотоп, художественное время, художественное пространство, мифологическое пространство, бытовой хронотоп.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidan, xususan, U.Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasida shahar va qishloq xronotopi yetakchi atributlardan biri sanaladi. Xronotop so‘zma-so‘z tarjima qilinganda zamon, makon degan ma’noni bildiradi. Badiiy asar dunyosida voqelikning makon-zamon nuqtayi nazarida uyg‘un kechishini ta’minlaydi. Ammo, u shunchaki texnik makon-zamon emas. u yozuvchi tomonidan jlonlantirilgan, asarning barcha komponentlari bilan uyg‘un harakatga yo‘naltirilgan muhim, qoliplovchi badiiy fenmendir. Har qanday mukammallik da’vo qiladigan asarda ham xronotop tizimi noqis bo‘lsa, buni o‘quvchi his etadi. Mukammal asar sifatida qabul qila olmaydi. Qodiriy romanida esa mana shu tizim mukammal, ayni paytda, o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan¹. Haqiqatdan ham, “O’tkan kunlar” romanidagi rivoya usuli badiiy xronotopning mukamal ishlangan ko‘rinishi sifatida qariyb yuz yildirki, o‘z o‘quvchilarini maftun etishda davom etib kelmoqda. Buning tagiga teran kirib, har tomonlama chuqur tadqiq qilganimizda masalaning turlicha shakl-u shamoyillari, usul va yo‘slnlari qalqib yuzaga chiqayotgani hech kimga sir emas, aslo!

Shahar xronotopi. Endi bizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biri U.Hamdamning, Somerset Moemning badiiy izlanishlarida qishloq va shahar xronotoplari oydinlik kiritish masalasi turibdi. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam “Uzoqdagi Dilnura” nomli hikoyasida oilada, yaqinlar va umuman, qarindosh-urug‘chilik orasida shon-shuhrat, boylik va soxta obro‘ evaziga yo‘qolib borayotgan muhim muammolar qalamga olinadi. Hikoyaning ekspozitsiyasi ana shu tugun bilan boshlanadi:

- Alo... Kozim aka? Alo!.. Bu men – Nozim...
- Nozimjon?.. Yaxshimisan, inim?
- Aka... Kozimjon aka!..
- Labbay, uka. Gapisang-chi, tinchlikmi?..
- Nima bo‘ldi?.. – xayoli ota-onasining omonat joniga ketdi Kozimjonning.
- Yunus tog‘am... Tog‘amni berib qo‘ydik...
- A?!.. Nega?.. Nima bo‘ldi?..
- Bandachilik, aka.
- Qachon?..
- Mana, hozir kasalxonadan olib kelishdi.
- Nima bo‘ldi o‘zi?

¹ Дўракулов У. Назарий поэтика масалаларни. –Т: “F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. 2015. –Б.200.

– Kelasizmi?..
 – Hm... Xo‘p... – chaynaldi Kozimjon. Lekin ko‘p-da hayallamay so‘lg‘in ovozda dedi: – Yo‘lga tushyapman.

- Hozir chiqsangiz ulgurasiz, aka...
- Albatta...

Kozimjon stol ustini yig‘ishtirib, kompyuterini o‘chirdi-da, tugmani bosib yordamchini chaqirdi.

- Amakim olamdan o‘tibdi. Bir-ikki kunga qishloqqa ketyapman, – deya xomush qo‘zg‘aldi.

– Voy... Xudo rahmat qilgan bo‘lsin, xo‘jayin... – yuzini siladi yordamchi. So‘ng ikki qo‘li ko‘ksida – rahbarni kuzatib chiqdi, – yoshlari nechchida edi?

Kozimjon peshonasini tirishtirib javob berishga chog‘lanib ko‘rdi: “Adashmasam, ellik beshlarda edi...”

- Yosh ketibdilar... attang.
- Yo‘qligimni bildirmay turgin.
- Xo‘p, xavotir olmang, – pildirab kelib mashina eshigini ochdi yordamchi. – O‘zingiz haydab ketasizmi? Yo haydovchini...
- O‘zim. Chaqirma.
- Yaxshi borib keling...

Kozimjonning “PRADO”si shahar tashqarisiga chiqib ulgurmay telefoni tag‘in jiringlab berdi”².

Hikoya muqaddimasidagi tragik vaziyat Kozimjonnı dovdiratib qo‘ygani rost. Mana shu qisqa epizodik lavha shahar va qishloq orasida kechayotgan badiiy xronotopning “xamirturushi” hisoblanadi. Badiiy voqelik yozuvchining dialogik munosabatida yanada ayancli manzaralar hali oldinda ekanligidan dalolat beradi. Yunus tog‘asining qishloqda kutilmaganda vafot etishi, jiyani Kozimjonnı chuqur iztirobga, huv bolalik lahzalariga, yoshligining o‘chmas va qaytib kelmas lahzalariga sudrab ketadi. Bu o‘rinda xronotop nafaqat syujetni, balki kompozitsiyani ham o‘ziga xos tarzda voqealantirish modusiga uyg‘unlashtiradi. Yozuvchi U.Hamdam hikoyada shu qadar shiddatlı ifoda tasvirlarini keltiradiki, o‘quvchi ham, kitobning qahramonlari ham tezlik bilan maqsad-manzil sari umrning oqar suvida harakat qiladilar.

Qishloq xronotopi. Badiiy voqelikning o‘ziga xos qirralaridan biri “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasida Ulug‘bek Hamdam qishloqdagı vaziyat va odamlarning, ayniqsa, vafot etgan Yunus tog‘asining birgina – jiyani Kozimjon taqdiri timsolida ochiqlana boradi. Ya’ni Kozimjon o‘sha kuni janozaga qosh qorayganda yetib keladi va, mayitni so‘nggi manzilga kuzata olmay darg‘azab bir ahvolga tushadi. Kozimjon baribir tog‘asi Yunus amakining janozasiga yetib ulgurmaydi. Uning xotirasida tiklangan bolalik lahzalarini eslay ketadi. Hikoyada polifonik tafakkur shu qadar uyg‘unlashtirilganki, qisqa vaqt ichida shahar-qishloq xronotopi bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyat kasb etadi. Rus munaqqidi M.M.Baxtin buni quyidagicha izohlaydi: “Har qanday asarning boshi va oxiri bo‘ladi. Unda tasvirlangan voqealar ham boshi va oxiri bilan keladi... muallif-ijodkor o‘zi tasvir etgan dunyo tashqarisida turib shu xronotoplarga tegishli bo‘ladi. Muallif bu olamni yo voqeada tasvir etilgan qahramon, yo hikoyanavis, yo soxta muallif, yo asl muallif o‘larоq (to‘g‘ridan-to‘g‘ri muallif nutqi orqali) o‘z nuqtayi nazariga ko‘ra tasvirlaydi. Ammo mazkur holatda u zamon-makon dunyosiga oid voqelikni go‘yoki o‘zi ko‘rgan, kuzatgan, shohid bo‘lgандек ko‘rsatadi. Agar u avtobiografiyasini yoki tom ma’nodagi tazarrusini yozganda ham, uni yozgan odam sifatida tasvirlanmish dunyo tashqarisida qoladi. Agar men o‘zim bilan hozirgina sodir bo‘lgan voqea haqida hikoya qilsam (yoki yozsam), men hikoyanavis o‘larоq ayni voqea sodir bo‘lgan zamon-makondan tashqarida bo‘laman”³. Darhaqiqat, muallif-ijodkor-kitobxon uchligi (roviy) nutqining badiiy xronotopni tashkillashtirish borasida aniq bir yechim tomon olib boruvchi munosabatni ko‘ramiz. Chunki, muallif voqelikni bevosita ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

² Hamdamov U. Uzoqdagi Dilnura. Hikoya. Manba: www.ziyouz.com saytidan olindi.

³ Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: “Akademnashr”. 2015. –B.255-256.

Yo'l xronotopi. Yo'l xronotopi o'zbek hikoyalarida keng tarqalgan bo'lib, u asarda qahramonning hayotiy yo'lini, ichki rivojlanishini va tashqi sayohatini ifodalashda qo'llaniladi. Bu xronotop, qahramonning bir makondan boshqasiga o'tishi jarayonida hayotiy tajriba orttirishi va o'zini anglashga intilishi bilan bog'liqidir. Masalan, Shukur Xolmirzayevning «Yoz yomg'irlarida» asarida yo'l qahramonning ichki o'zgarishi va hayotga bo'lgan qarashlarini qayta ko'rib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu xronotop qahramonning ichki va tashqi o'zgarishlarini, uning inson sifatida shakllanishini tasvirlashda muhim vosita sifatida qo'llaniladi.

Uy xronotopi. Uy xronotopi o'zbek adabiyotida alohida o'rinn tutadi. Uy odatda tinchlik, barqarorlik, an'ana va oilaviy qadriyatlar timsoli sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek yozuvchilari, masalan, Abdulla Qodiriy yoki Said Ahmad, o'z asarlarida uyni qahramonlar uchun xavfsizlik va barqarorlik maskani sifatida tasvirlaydilar. Bu xronotop milliy madaniyatning asosiy elementlarini ifodalaydi va oila, urf-odatlar, an'analar va ular bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Uy xronotopi orqali o'zbek hikoyachiligi milliy o'zlikni anglash va o'zining madaniy merosini saqlash g'oyalarini o'quvchiga etkazadi.

Bayram vaqt xronotopi. Bayram vaqt xronotopi o'zbek hikoyachiligida jamiyatning birligi va ijtimoiy hamjihatlikni tasvirlashda qo'llaniladi. Bayram, masalan, Navro'z kabi milliy bayramlar, asarda o'zgacha vaqt va makon sifatida tasvirlanadi. Ushbu xronotop o'zbek xalqining madaniy qadriyatlarini, an'analarini va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bayram vaqt xronotopida voqealar o'ziga xos marosimlar va udumlar orqali tasvirlanadi, bu esa asarda milliy ruhni ifodalash va o'quvchini o'z madaniyatiga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Mifologik makon va vaqt xronotopi. O'zbek xalq ertaklari va rivoyatlarida mifologik makon va vaqt xronotopi muhim rol o'ynaydi. Bu xronotop asarlarda voqealarining real dunyodan tashqarida, afsonaviy va sehrli makonlarda sodir bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, «Alpomish» dostonida qahramonning sehrli va fantastik olamlarga sayohati tasvirlanadi, bu esa o'zbek xalqining madaniy arketiplari va timsollarini aks ettiradi. Mifologik xronotoplар orqali milliy madaniyatning chuqur ildizlari va arketiplari saqlanib, ular yangi avlodlarga etkaziladi.

Xulosa

O'zbek hikoyachiligida badiiy xronotop shakllari asarning umumiylarini mazmunini shakllantirishda va milliy o'zlikni anglashda muhim rol o'ynaydi. Bu xronotoplар asarlar orqali milliy madaniyat, urf-odatlar, tarix va o'tmish voqealarini aks ettirishga, ularni yangi avlodlarga etkazishga xizmat qiladi. Xronotoplар asarning mazmuni va shaklini chuqurlashtiradi, o'quvchini milliy o'zlikni anglashga undaydi va milliy madaniyatning boyligini yoritadi. Shu tariqa, o'zbek hikoyachiligi xronotoplар vositasida milliy madaniyat va an'analarni saqlab qolish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy xronotopning o'rinn-joy nomlari bilan bog'liqlik nuqtalarini U.Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi negizida talqin qilib ko'rdik. Ya'ni hikoyanavis o'z-o'zidan badiiy idrokning falsafiy qirralarini ifodalabgina qolmay, Kozimjon timsolida dalolatlashga diqqat qaratadi. Bunday vaziyatda nafs otiga mingan qahramonlar xarakterini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. To'raeva B.B Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No 1 (42),146-168 <https://journal.fledu.uz/>
2. Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: "Akademnashr". 2015. – B.255-256.
3. Hamdamov U. Uzoqdagi Dilnura. Hikoya. Manba: www.ziyouz.com saytidan olindi.
4. Дўракулов У. Назарий поэтика масалалалри. –Т: "F.Фулом номидаги нашриёт-матбаба ижодий уйи". 2015. –Б.200.
5. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurashid-abdurahmonov-beshinchi-qism.html>
6. Ismailova X.N Mixail Sholoxovning o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasi: uslub va janr uyg'unligi(O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov ijodi asosida). Filol.fan. fals. d-ri. ...diss. avtoref. — Urganch – 2023, 20-22 <https://api.ziyouz.com/uploads/books/10000014/353fkUmwuefi9v.pdf>